

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYODA ILG'OR FALSAFIY, IJTIMOIY-SIYOSIY FIKRLAR.

Rustamova Jasmina Jamshid qizi
To'xtayeva Nilufar Rasul qizi
Safarova E'zoza Bahodir qizi
O'ralova Marjona Zafar qizi

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish
fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 3- bosqich talabalari*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XXasr boshida markaziy osiyoda falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Falsafa, jadidlar, madaniyat, ma'rifat, dunyoqarash, tasavvuf, an'ana, turmush tarsi, A.Avloniy, M.Behudiy.*

Абстрактный. *В данной статье говорится о философской, общественно-политической мысли в Средней Азии конца XIX - начала XX века.*

Ключевые слова. *Философия, новое время, культура, просвещение, мировоззрение, мистика, традиция, быт, А. Авлони, М. Бехуди.*

Abstract. *This article talks about philosophical, socio-political thought in Central Asia at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries.*

Key words. *Philosophy, modern times, culture, enlightenment, worldview, mysticism, tradition, life, A. Avloni, M. Bekhudi.*

XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo'ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushi bo'lib, ilm-fan taraqqiyotida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bir jamiyatning butunlay yod jamiyat ta'sirida qolishi nafaqat hayotda balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi o'zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning turmush tarzi o'ta past, madaniy-ma'naviy hayotida islom dini peshvolarining ta'siri kuchli edi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgan bir vaziyatda, unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqdi.

"XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so'nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo'lib, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo,

umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan ma'rifiy ta'limotlar va nazariyalar mavjud edi".

Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati balki boshqa g'oyaviy ta'limotlar ham shakllandi. Kishilarning dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgandi. Bu davrda O'rta asr musulmon mutafakkirlarining asarlarini qayta nashr etish ishlari boshlandi. Kalom falsafasi, shariat axloqiga oid klassik adabiyotlar arab-fors tilidan turkiy tillarga tarjima qilinib nashr etildi. Masjid va madrasalarda Bedilxonlik, diniy ulamolar tomonidan qadimchilik harakatlari, sherxonliklar avj oldi. O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik harakati kishilarning ilm-fan taraqqiyotiga, umuminsoniy qadriyatlarga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qoloqlikni bartaraf etishga bo'lgan intilishining natijasi edi.

XIX asr va XX asr boshlarida Turkistonda jadidlar harakati vujudga keldi. Ular xalqni ma'rifatli qilish, bilim saviyasini ko'tarish, fikr doirasini o'stirish, milliy istiqbolga erishishning zarur shartlaridan biri deb tushundilar va ana shu oliyjanob niyatlarini amalga oshirish uchun tinmay harakat qildilar. Xalqimizning zukko farzandlari Maxmudxo'ja Bexbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy shular jumlasiga kiradilar. Turkistonning kelajak taqdiri to'g'risida millatning istiqboli haqida tinmay qayg'urdilar, izlandilar, milliy istiqbolimizga zamin yaratdilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyondalari Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib bordilar. Jadidchilik harakatining muhim xususiyati uni milliy - ozodlik harakati bilan chambarchas bog'liqligi edi.

O'sha davrda jadidchilik harakatining qator vakillari yetishib chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo'lib, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmi qilish, ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir. Behbudiy yangi maktablar uchun «Risolayi asbobi savod», «Amaliyoti islom» va boshqa darsliklarni yozadi. Uning asosiy asari «Padarkush» dramasidir. Bulardan tashqari, Behbudiy ko'plab publitsistik maqolalar yozdi, matbuotda xizmat qildi, nashr ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Uning maqolalarida millat va Vatan taqdiri, mustaqillik g'oyasi, axloq va ta'lim-tarbiya va boshqa masalalar o'rin olgan.

Jadidchilik harakatining yana bir yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniydir (1878—1934). U pedagogik faoliyat va badiiy ijodni qo'shib olib bordi. Avloniy ochgan maktablarda dunyoviy fanlarni bolalarga o'qitish yo'lga qo'yildi. Mutafakkir «Ikkinchi muallim», «Birinchi muallim», «Alifbedan so'nggi o'quv kitobi» kabi darsliklarni yaratdi. Ayniqsa, olimning «Turkiy guliston yoxud axloq» darsligi bolalar dunyoqarashi, milliy ongi va mafkurasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda bolalarga ilm - fan sirlarini o'rgatish, yaxshi xulq - odob qoidalarini singdirish, Turkiston xalqini asriy qoloqlikdan qutqarish yo'llari, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltirish masalalari yoritilgan. Avloniy

«Advokatlik osonmi», «Biz va Siz», «Portugaliya inqilobi», «Ikki sevgi» va boshqa dramatik asarlar yozib, o'zbek teatri va dramaturgiyasi rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Jadidchilik harakatining yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat (1884—1939) bo'lib, ilmning ko'p sohalarida ijod qilgan mutafakkirdir. Olim «Hind sayyohining qissasi», «Uchqun» to'plami, «Chin sevis», «Hind ixtilochilari», «O'zbek tili grammatikasi», «Chig'atoy adabiyoti» va boshqa ko'plab asarlar yozdi. Fitratning asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-ma'rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o'zligini tanishi, ongining o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo'lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Uning yuqoridagi millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari hozir ham tadbirkorlik, ma'naviyat va ma'rifatni ravnaq toptirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda, xalqning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi edi. Hamonki, maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash masalasi jadid allomalarining oldiga qo'yilgan bosh masala bo'ldi. 1900-1925 yillar “jadidchilik” tushunchasining paydo bo'lishi o'z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir [3:10].

O'zbek falsafasining ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida “XIX asrning so'nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy shakllanishining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Turkistonda o'sha paytda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar – qadimchilar, jadidchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan “Chig'atoy gurungi” kabi ancha yetuk yig'inlar, ular ilgari surgan ma'rifiy ta'limotlar, nazariyalar mavjud edi”[1: 155]. Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati, balki boshqa harakatlar ham shakllangan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan ilg'or ma'rifatparvarlar davlat mustaqilligini yo'qotilishiga asosiy sabab, O'rta Osiyo jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqligi ekanini juda yaxshi tushunib yetgan. Ular turli ijtimoiy qatlamlarning orasidan chiqqan va eng asosiysi zakovatli bo'lib, ilg'or ziyolilarning birinchi avlodi bo'ldi. Ana shu negizdan keyinchalik jadidlar yetishib chiqib ularning g'oyalarini rivojlantirdi va ma'rifatdan siyosatga qarab yo'l oldi.

Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta'lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo'yish singari maqsadlar ilgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ular, ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-xarajatlarga olib keluvchi an'anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan. Agar bunday qarashlar debochasini Ahmad Donish kabi ma'rifatparvarlar boshlab bergan bo'lsa, ularning g'oya va qarashlarini

Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat rivojlantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nazarov. O'zbek falsafasi. –T., 2003.
2. Tulak. XX asr o'zbek adabiyoti. –Andijon, 1993.
3. Qosimov. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoiylilik. –T., Ma'naviyat, 2002.
4. Sh.G'affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 200.
5. Tog'aev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o'rganish.// "Xalq ta'limi", 1993, 1-son.